

## INGLIZ TILINI O'RGANISHDAGI ASOSIY XATOLAR

O'razaliyeva Sevinch Sharof qizi  
Guliston davlat Pedagogika instituti talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ko'plab insonlar til o'rganayotganda qiladigan xatolar bilan tanishasiz.

**Kalit sozlar:** xato qilishdan qo'rqish, grammatik xato, muloqot.

Ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishning zamonaviy ta'lim metodlari ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, o'rganishning o'ziga xos muammolari mavjud.

O'rganuvchi o'quvchilar undan foydalanishga majbur bo'lganlaridagina boshqa tilni yaxshi o'rganadilar. O'qituvchi o'quvchilarga o'rganilayotgan tilda muloqot qilishlarini talab qilishi shart. Ana shu holatdagina til o'rganishda o'sish, talaffuzda ravonlik kabi yutuqlarga erishish darajasi oshadi. Dars jarayonida qat'iyat bilan talab qilinsa va cheklovlar yo'lga qo'yilmasagina chet tilini o'zlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Darslarga qatnashmaslik, o'qitishning o'ziga xos metodologiyasining yo'qligi, repetitorlarning doimiy o'zgarishi - bunday tezlikda siz ingliz tilini tez va samarali o'rgana olmaysiz.

Yana bir asosiy xatolaridan biri bu - xato qilishdan qo'rqish. Har bir tilni o'rganayotganda xatolarga yo'l qo'yadi. Har bir o'rganuvchi xatolaridan xulosa chiqara olishni bilishi kerak. Har bir qilayotgan xato tajriba bo'lib xizmat qiladi

Insonlar bilan muloqot qilmaslik. Aksariyat insonlar aksentni noto'g'ri qo'yishdan, grammatik xato qilishdan qo'rqib insonlar bilan suhbat qurmaydilar. Bu o'rganuvchini til o'rganishdagi katta xatosi hisoblanadi. Asosan til muloqot qilish uchun o'rganilinadi.

O'qituvchiga qaram bo'lib qolish ham xato. O'z ustida mustaqil ishlash, muammolarni mustaqil hal qilish va izlanish har qanday fanni yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiladi. Talaba har bir kichik muammo yuzasidan o'qituvchiga murojaat qilaverishi, o'quvchining qaramligidan dalolat beradi. Bu esa talabaning o'z ustida ishlash imkoniyatini kamaytiradi.

Mustaqil ravishda o'z ustida ishlamaslik. Darslardan so'ng mustaqil ravishda aksent ustida ishlashni, insho, xatolar yozishni mashq qilib, yangi so'zlarni o'rganishga harakat qilishmaydi. Grammatik qoidalarga bog'lanib qolish, til bilan bog'liq to'siqlar kabi muammolar talabalar-ning til o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni so'ndirib, jiddiy yondashmaslikka sabab bo'ladi. Aslida muloqot tushunarli bo'lishi uchun tuzilgan jumlar grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi shart emas degan g'oyani bir vaqtning o'zida qisman to'g'ri va qisman noto'g'ri.

Yechim sifatida bir qator yo'llarni sanab o'tish mumkin. Shulardan biri, talaba so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rganishi uchun audio kitoblardan keng foydalanishni yo'lga qo'yishi kerak. Aynan mustaqil ravishda chet tilida filmlar, til o'qitishga moslangan videolavhalarni tomosha qilish qisman bo'lsa ham ko'prik sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, ingliz tilini

<https://conferencea.org>

o'rgatishda o'qituvchilarning ham roli bo'lib, motivatsiya berish, darsga qiziqtirish asosiy o'rin egallaydi. Bundan tashqari, til o'rgatishda turli metodlarni qo'llash hisobga olinishi kerak, chunki u o'qituvchilar ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarga mos sharoit yaratish hamda talabalarning o'quv muammolari bilan shug'ullanishlariga yordam beradi. Tilni o'rganishda erishmoqchi bo'lsangiz, qisqa muddatli maqsadlarni qo'ying. Jadvalingizga rioya qiling va darslarni o'tkazib yubormang.

**Xulosa** qilib aytganda, til o'rganishdagi asosiy xatolar mas'uliyat bilan yondashilmayotganligi uchun paydo bo'ladi. Agar tilni chin dildan, to'g'ri maqsad qo'yib o'rganilsa samaraliroq boladi. Va shundagina o'rganuvchi muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. INGLIZ TILINI O'RGANISHNING SAMARALI USULLARI Ziyodullayeva Mukaramoy Zuhurjon qizi <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/2101>
2. CHET TILINI O'QITISH METODIKALARI Abdullayeva Mohinur Jumaboy qizi <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/2104>
3. Akadmvd.uz